

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

5. Xaydarov B. RIVOJLANGAN DAVLATLARDA ICHKI AUDIT VA UNI IQTISODIYOTIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 87-97.
6. Saitov S., Karimqulova O. O ‘ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTIDA BANKLARNING ROLI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 132-138.
7. Khaydarov B., Tychieva N. INNOVATIVE TEACHING METHODS FOR COMPUTER SCIENCE AND EDUCATIONAL ROBOTICS //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 14-19.
8. Saitov S., To‘rabekov O. O ‘ZBEKISTONNING JAHON BOZORIGA KIRIB BORISHDAGI MUAMMOLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 238-245.

TA’LIM XIZMATLARI KO‘RSATISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI VA ROLI

Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
o‘qituvchisi*

ubaydullayevavasila3110@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda ta’lim xizmatlari ko‘rsatish jarayonida raqamli iqtisodiyotning roli va ahamiyati yoritib beriladi. Raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, o‘quv resurslaridan samarali foydalanish, masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion texnologiyalar orqali o‘qitish tizimini modernizatsiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, ta’lim xizmatlari, innovatsiya, masofaviy ta’lim, texnologiya.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlarga olib keldi. Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish jarayonida raqamlashtirish – bu ta’lim jarayonini texnologik innovatsiyalar asosida tashkil etish, resurslardan samarali foydalanish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni yangi darajaga olib chiqish demakdir. Raqamli iqtisodiyotning ta’limdagi o‘rni global tendensiyalar bilan hamohang bo‘lib, har bir tizim o‘z faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda.

Raqamlashtirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda turli elektron platformalar, masofaviy o‘qitish tizimlari, interaktiv ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Raqamli texnologiyalar o‘quv materiallarini vizuallashtirishga, murakkab mavzularni tushunarli ko‘rinishda taqdim etishga, interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning jarayonga faol jalb

qilinishiga yordam beradi. Shu sababli, raqamli ta’lim an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda ko‘proq samara beradi. Raqamli iqtisodiyot ta’lim jarayonini avtomatlashtirishga zamin yaratadi. Elektron kundalik, talabani reytingini avtomatik hisoblash, test sinovlarini tezkor qayta ishlash, topshiriqlarni onlayn qabul qilish kabi imkoniyatlar o‘qituvchi vaqtini tejaydi, inson omili sababli yuzaga keladigan xatolar sonini kamaytiradi. Bunday tizimlar o‘quv jarayonining shaffofligini ta’minlaydi va ta’lim boshqaruvining samaradorligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot masofaviy ta’limni rivojlantirishda asosiy omillardan biridir. Pandemiya yillarida bu jarayon o‘zining amaliy tasdig‘ini topdi. Masofaviy ta’lim nafaqat karantin sharoitida, balki kechki, sirtqi va qo‘shimcha o‘quv dasturlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish orqali ta’lim geografik chegaralardan chiqib, keng auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Masalan, chekka hududlarda yashovchi yoshlar ham yuqori sifatli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot ta’limda individual yondashuvni kuchaytiradi. Sun’iy intellekt, tahliliy dasturlar, ta’lim monitoringi tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasini real vaqt rejimida baholash va unga mos ravishda o‘qitish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv har bir talabani o‘z imkoniyatidan maksimal darajada foydalanishiga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyot innovatsion ta’lim loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, onlayn kutubxonalar, xalqaro ta’lim platformalariga ulanib ishlash imkoni talabalarda nafaqat bilim, balki real ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa ta’lim bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot ta’lim xizmatlari ko‘rsatishda samaradorlik, shaffoflik, innovatsiya va inson kapitalini rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Raqamlashtirish milliy ta’lim tizimini zamonaviy xalqaro talablarga moslashtirish, ta’lim jarayonini takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna-2024- “ Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish” *International Scientific and Practical Conference*, 1(2), 242-246.
3. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna-2024 “Ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari // “Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2024.e-ISSN-2992-877X. OAV №0237 503-510 bet. 11-son (08.00.05. №11).
4. Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna Davlat-Xususiy Sherikchiligini Tashkil Qilish Samaradorligini Oshirish.// “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. 2024.-ISSN-2181-4430. OAV №0237 503-510 bet. 9-son (08.00.05. №9).
5. Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna ”Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish”// “Korrupsiyasiz jamiyat -

muammo va yechimlar” mavzusida 2025 yil 12 fevralda respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 361-365

6. Sadullaevna U. V. The role of HEMIS in the management of the educational system of higher education institutions //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 2023.—T. 20. — C. 19-22.
7. Ubaydullaeva V. Uzluksiz ta’lim tizimida ta’limning texnologiyalarini qo‘llash muammolari //Science technology&Digital finance. — 2023. — T. 1. — №. 3. — C. 132-143.
8. Убайдуллаева В. Фанларни ўқитишда инновацион ёндашув //Академические исследования в современной науке. — 2023. — Т. 2. — №. 14. — С. 134-137.
9. Ubaydullaeva Vasila Sadullaevna-2024- “ Ta’lim xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirish va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish” *International Scientific and Practical Conference*, 1(2), 242-246.
10. Ubaydullaeva V. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. — 2023. — Т. 1. — №. 2. — S. 173-176.
11. Ubaydullaeva, V. (2024).Raqamlashtirish-yangi ao‘zbekiston rivojlanishining muhim “DRIVERI”. *Science technology&Digital Finance*, 2(3), 18-22.

BOZOR INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Dilshodov Shoxabbos Bekzod o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filliali Iqtisodiyot yo‘nalishi 332-25 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor infratuzilmasining mazmuni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Asosiy e’tibor infratuzilmani zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish yo‘nalishlariga qaratilgan. Raqamli texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar, logistika tizimi va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarbligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Bozor infratuzilmasi, Vositachi institutlar, Modernizatsiya, Integratsiya, Moliyaviy bozor, Axborot-kommunikatsiya tizimlari, iqtisodiy samaradorlik, bozor mexanizmi, brokerlik xizmatlari, bozor ishtirokchilari.

Kirish

Bozor infratuzilmasi iqtisodiyotning raqobat bardoshligi va barqarorligi uchun muhim poydevor hisoblanadi. U moliyaviy institutlar, transport va kommunikatsiya tarmoqlari, mehnat bozorini ta’minlovchi tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitida infratuzilmani modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun strategik yo‘nalish sifatida